

YASHIL

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal



ZAMONAVIY IQTISODIYOTDA YUQORI MUHANDISLIK TEKNOLOGIYALARINI ILMIY-AMALIY JORIY ETISH INNOVATSION TARAQQIYOT POYDEVORI


2
0
2
4

MAQOLALAR TO'PLAMI

MAXSUS SON
Iyun-iyul



Digital
Object
Identifier



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Mas'ul muharrir:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'ZR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'ZR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'ZR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMBIB birinchi prorektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d. TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Musyeva Shoirazimovna, SamDu IS instituti professori

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi

Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Utayev Uktam Choriyevich, O'ZR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari

Ochilov Farxod, O'ZR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'ZR Tabiat resurslari vazirligi, O'ZR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

“ZAMONAVIY IQTISODIYOTDA YUQORI MUHANDISLIK TEXNOLODIYALARINI ILMIY-AMALIY JORIY ETISH INNOVATSION TARAQQIYOT POYDEVORI”

MAVZUSIDAGI ILMIY MAQOLALAR TO‘PLAMI





HUDUDLARNING MUTANOSIB BARQAROR RIVOJLANISHINI TA'MINLASH IMKONIYATLARI (Ijtimoiy rivojlanish va yo'nalishlar)

Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich

Buxoro muhandislik texnologiya instituti tayanch doktranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi hududlarining mutanosib va barqaror rivojlanishini ta'minlash imkoniyatlari ijtimoiy rivojlanish yo'nalishi nuqtayi nazaridan tadqiq etiladi. Mamlakatimizda ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlarini rivojlantirish, shuningdek, aholining turmush darajasini yaxshilash bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar tahlil qilinadi. Ushbu yo'nalishlar bo'yicha qabul qilingan strategiyalar va ularning barqaror rivojlanishga ta'siri ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari ijtimoiy rivojlanish orqali hududlarning barqaror rivojlanishini ta'minlashda samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: mutanosib barqaror rivojlanish, ijtimoiy rivojlanish, ta'lim tizimi, sog'liqni saqlash tizimi, aholining turmush darajasi, o'qituvchilar malakasini oshirish, shifokorlar malakasini oshirish, qishloq hududlari rivoji.

Abstract: In this article, the possibilities of ensuring the balanced and sustainable development of the regions of the Republic of Uzbekistan are studied in terms of the direction of Social Development. In our country, measures will be analyzed to develop educational and health systems, as well as to improve the standard of living of the population. Strategies adopted along these lines and their impact on sustainable development are considered. The results of the study help to develop effective measures to ensure the sustainable development of regions through social development.

Key words: proportional sustainable development, social development, education system, Health System, standard of living of the population, teacher training, doctors training, development of rural areas.

Аннотация: Аннотация. В данной статье рассматриваются возможности обеспечения сбалансированного и устойчивого развития территорий Республики Узбекистан с точки зрения направления социального развития. Будут проанализированы меры, которые будут предприняты для развития систем образования и здравоохранения в нашей стране, а также для повышения уровня жизни населения. Будут рассмотрены стратегии, принятые в этих областях, и их влияние на устойчивое развитие. Результаты исследования способствуют разработке эффективных мер по обеспечению устойчивого развития территорий посредством социального развития.

Ключевые слова: сбалансированное устойчивое развитие, социальное развитие, система образования, система здравоохранения, уровень жизни населения, повышение квалификации учителей, повышение квалификации врачей, развитие сельских районов.

KIRISH

Hududlarning mutanosib barqaror rivojlanishini ta'minlash ijtimoiy rivojlanish bilan bevosita bog'liqdir. Ijtimoiy rivojlanish aholining turmush darajasini oshirish, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlarini yaxshilash orqali hududlarning barqaror rivojlanishiga hissa qo'shadi. Ushbu maqolada O'zbekistonda hududlarning ijtimoiy rivojlanishi va uning barqaror rivojlanishga ta'siri tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoniga asosan o'rta ta'lim tizimini zamon talablariga moslashtirish maqsadida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida darsliklarni yangilash dasturini amalga oshirish uchun Davlat byudjetidan 605 mlrd. so'm ajratildi, shuningdek, 141 mingta yangi o'quv o'rinlari yaratilishi va ularning sonini 2026-yil yakuniga qadar 6,4 milliongacha yetkazilishi, hududlarda birlamchi tibbiy xizmatini "bir qadam" tamoyili asosida yo'lga qo'yib, 105 ta oilaviy shifokor punkti va 31 ta oilaviy poliklinika tashkil etilishi belgilandi. [1]

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning 2022-yil 11-maydagi "2022–2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134-sonli Farmoniga asosan xalq ta'limi sohasida ilg'or xorijiy tajriba asosida ta'lim sifatini oshirish, jamiyatda o'qituvchi kasbi nufuzini oshirish, ular uchun qulay ijtimoiy sharoitlar yaratish va mehnatini munosib rag'batlantirish, iqtidorli yoshlar bilan ishlash, o'quvchilarning bo'sh



vaqtlarini mazmunli tashkil etish va ularni kasb-hunarga yo'naltirish tizimini takomillashtirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ta'lim tizimini takomillashtirish va inklyuziv ta'lim jarayonlarini kengaytirish, ta'lim tizimini raqamlashtirish, shuningdek, umumiy o'rta ta'lim muassasalari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ularning infratuzilmasini yaxshilash ishlari amalga oshirilmoqda. [2]

Ijtimoiy rivojlanish yo'nalishida hududlarning mutanosib barqaror rivojlanishini ta'minlash bo'yicha dunyoning turli olimlari tomonidan ko'plab ilmiy asarlar yozilgan. Ushbu asarlarda barqaror rivojlanish, iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlik masalalari keng muhokama qilingan. Donghyun Kim va Up Lim (2017) ijtimoiy iqtisodiyot nazariyasi asosida hududiy va mahalliy barqaror rivojlanishni ta'minlashda ijtimoiy korxonalarining rolini o'rganadilar. Ularning fikricha, ijtimoiy korxonalar, ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish orqali, mahalliy va hududiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu korxonalar hamkorlik va tarmoqlarni rivojlantirish orqali barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlashini ta'kidlagan.[3] Amanda Davies boshchiligidagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, barqaror rivojlanish prinsiplarini hududiy rivojlanish strategiyalariga integratsiya qilishda hukumat va xususiy sektor tashabbuslari muhim rol o'ynaydi. Ular turli mintaqaviy rivojlanish siyosatlari va amaliyotlarini ko'rib chiqish orqali yangi ilmiy dalillarni taqdim etadilar. [4]


Oren Yiftachel va David Hedgcock barqaror hududiy rejalashtirishning ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik foydalarini o'rganadilar. Ularning fikriga ko'ra, barqaror rivojlanish insonlar o'rtasidagi munosabatlarni, ma'lumot almashishni va madaniyatni rivojlantirishga yordam beradi.[5] Ushbu olimlarning tadqiqotlari hududlarning mutanosib barqaror rivojlanishini ta'minlashda ijtimoiy rivojlanish yo'nalishining muhimligini ta'kidlaydi. Ijtimoiy adolat, iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlik o'rtasida muvozanatni saqlash orqali barqaror rivojlanishga erishish mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ta'lim tizimi ijtimoiy rivojlanishning asosiy omillaridan biridir. Ta'lim darajasi yuqori bo'lgan hududlarda aholining iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlari kengayadi, bu esa barqaror rivojlanishga xizmat qiladi.

O'zbekiston ta'lim tizimi maktabgacha ta'limdan boshlab oliy ta'limgacha barcha bosqichlarni o'z ichiga oladi. Ta'lim tizimi davlat tomonidan to'liq nazorat qilinadi, bu esa o'quv dasturlarining yagona standartlarga asoslanishini ta'minlaydi. Bu tizimning har bir bosqichida bolalar va yoshlarga keng ko'lamli ta'lim olish imkoniyati yaratilgan bo'lib, bu borada o'zgarishlar va islohotlar amalga oshirilmoqda, jumladan, ta'lim sifatini oshirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va xalqaro standartlarga moslashish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rilmogda (1-rasm).

Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, 2024-yil yanvar-may oylaridagi ulushi 60,6 foizni tashkil etdi. [7]




1-rasm.

Hududlar orasida ta'lim sohasidagi eng katta hajm Toshkent shahriga to'g'ri keladi. 2020-yilning yanvar-may oylariga nisbatan mazkur hududda ushbu xizmat turi hajmi 2935,2 mlrd so'mga oshdi va ko'rib chiqilayotgan davrda 4167,5 mlrd. so'mga yoki ta'lim sohasidagi xizmatlar umumiy hajmining 44,5 foiziga yetdi(2-rasm).[8]



Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar
(2024- yil yanvar-may, mlrd so'mda)



2- rasm.


O'zbekistonda ta'lim tizimini rivojlantirish uchun ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini yaxshilash va zamonaviy o'quv dasturlarini joriy etish, yangi texnologiyalar va innovatsion metodlarni o'qituv jarayoniga kiritish orqali ta'lim sifati oshirilishi, o'qituvchilarni malaka oshirish kurslari va seminarlariga jalb qilish orqali ta'lim sifati oshirilishi mumkin. O'qituvchilarni xalqaro tajriba almashish dasturlariga jalb etish ham muhim ahamiyatga ega. Qishloq hududlarida ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish va ta'lim xizmatlaridan foydalanishni yaxshilash, internet va masofaviy ta'lim vositalarini joriy etish orqali ta'lim sifati oshiriladi.

Sog'liqni saqlash tizimi ham ijtimoiy rivojlanishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Sog'liqni saqlash xizmatlari yaxshi rivojlangan hududlarda aholi sog'lom va iqtisodiy faol bo'lishi mumkin. O'zbekistonning barcha hududlarida, jumladan, qishloq joylarda ham asosiy tibbiy xizmatlar ko'rsatiladi. Bu tizimga poliklinikalar, kasalxonalar va ixtisoslashgan tibbiyot markazlari kiradi. Mamlakatimizda profilaktik tibbiyotga katta e'tibor beriladi. Bu orqali yuqumli kasalliklarning oldini olish va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga harakat qilinadi.

So'nggi yillarda sog'liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilish bo'yicha keng qamrovli islohotlar amalga oshirildi. Yangi texnologiyalar joriy etilib, tibbiyot muassasalari yangilandi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar umumiy hajmida shifoxona muassasalari xizmatlarining hissasi salmoqli bo'lib, 2024-yil yanvar-may oylaridagi ulushi 46,5 foizni tashkil etdi. Boshqa sog'liqni saqlash xizmatlari 28,8 foizni, shifokorlar amaliyoti va stomatologiya sohasidagi xizmatlar 24,7 foizni tashkil etdi(3-rasm).

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar
(2020-2024 yy. yanvar-may, mlrd. so'mda)




3-rasm.

O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish uchun shifoxonalar va poliklinikalarni zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar bilan ta'minlash orqali tibbiy xizmatlar sifati oshadi va aholining salomatligi yaxshilanadi. Shifokorlar va hamshiralarni malaka oshirish kurslari va tajriba almashish dasturlariga jalb qilish, shuningdek,




yangi tibbiy texnologiyalar va usullardan foydalanishni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Aholining salomatligini saqlash uchun profilaktik tibbiy xizmatlarni kengaytirish va targ'ib qilish, profilaktik ko'riklar va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish orqali kasalliklarning oldini olish mumkin bo'ladi(4-rasm).



4-rasm.

Aholining turmush darajasini yaxshilash barqaror rivojlanishning asosiy shartlaridan biridir. O'zbekistonda aholining turmush darajasini yaxshilash bo'yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda, jumladan, iqtisodiyotni diversifikatsiyalash va o'sish sur'atlarini oshirish maqsadida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu, o'z navbatida, yangi ish o'rinlari yaratish va aholining daromadlarini oshirishga yordam beradi. Aholining kam ta'minlangan qatlamlariga yordam berish, ularning yashash sharoitlarini yaxshilash maqsadida turli ijtimoiy dasturlar joriy etilgan. Bu dasturlar orqali nafaqa, subsidiyalar va boshqa ko'maklar taqdim etiladi. Aholining uy-joy sharoitlarini yaxshilash maqsadida yangi uy-joylar qurish va mavjudlarini rekonstruksiya qilish bo'yicha davlat dasturlari amalga oshirilmoqda. Arzon uy-joy dasturlari orqali ko'plab oilalar yangi uy-joylarga ega bo'lmoqda. Qishloq infratuzilmasini rivojlantirish, suv ta'minoti, elektr energiyasi va yo'llarni yaxshilash orqali qishloq aholisi uchun yashash sharoitlarini yaxshilashga katta e'tibor qaratilmoqda. Iqtisodiy, ijtimoiy va infratuzilmaviy sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar bir-birini to'ldiradi va birgalikda aholining turmush darajasini yaxshilashga xizmat qiladi(5-6-rasm).


2024-yil yanvar-may oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning jami xizmatlar hajmidagi ulushi 4,1 % ni tashkil etdi. Ularning tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ustunlik qilib – 78,0 foizni tashkil etdi. [9]



5- rasm.



Hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2024- yil yanvar-may, mlrd. so'mda)



6- rasm.

Ish o'rinlari yaratish va bandlikni oshirish orqali aholining iqtisodiy ahvolini yaxshilash, bandlik dasturlari va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash orqali bandlik darajasi oshiriladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda hududlarning mutanosib barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun ijtimoiy rivojlanish yo'nalishlarida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar muhim ahamiyatga ega. Ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish va sifatli ta'lim imkoniyatlarini yaratish, kasb-hunar o'rgatish dasturlarini kengaytirish va malaka oshirish kurslarini rivojlantirish hamda sog'liqni saqlash tizimida profilaktika tadbirlarini kuchaytirish, hududlarda yangi ish o'rinlarini yaratish, ayniqsa, yoshlar va ayollar uchun bandlik imkoniyatlarini kengaytirish, mehnat bozori talablariga mos kadrlar tayyorlash va bo'sh ish o'rinlari haqida keng ma'lumot berish tizimini yaratish, aholining turmush darajasini yaxshilash orqali barqaror rivojlanishga erishish mumkin. Bu yo'nalishlarda amalga oshiriladigan tadqiqotlar va chora-tadbirlar O'zbekistonning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Donghyun Kim va Up Lim "Social Economy in Korea: Theory, Policy and Practice" 288 bet, Palgrave Macmillan, 2017-y.
2. Amanda Davies "Sustainable Regional Development: The Social, Environmental and Economic Challenges and Solutions" 288 bet, "Sustainability" jurnali, 2021 y.
3. Oren Yiftachel va David Hedgcock "Sustainable Development and Regional Planning Strategies" 226 bet, Springer Dordrecht nashriyoti, 2001-y.
4. T.T. Hojiyev "O'zbekiston Respublikasida hududlarni mutanosib barqaror rivojlantirish masalalari va yechimlari" // "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali. 2024-yil, may. №5-son. b.49-53.

Internet manbalar

1. <https://president.uz>
2. <https://lex.uz>
3. <https://stat.uz>
4. <https://www.mdpi.com>



MUNDARIJA

Muhandislar – taraqqiyot tayanchi	4
Sadoqat Siddiqova	
Исследование влияние азотсодержащей добавки на процесс окисления битумов	9
Юлдашев Норбек Худайназарович	
Ziyorat turizmining iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy ta'siriga oid muammolar yechimida terminologiyaning ahamiyati.....	14
Malohat Jo'rayeva, Shavkat Bafoyev	
Ekspluatatsiya davrida kompressor moylarining ishlashi va fizik-kimyoviy xususiyatlari o'zgarishining o'ziga xosligi	19
Xo'jaqulov Aziz Fayzullayevich	
Tabiiy gazning oltingugurtli qo'shimchalarining fizik-kimyoviy xossalari tadqiq qilish	24
Muxtor Jamolovich Maxmudov, Ramazonov Bahrom G'afurovich	
Автоматическое формообразование пневматических опалубок бикубическими сплайнами.....	30
Ядгаров Ўктам Турсунович, Ахмедов Юнус, Асадов Шухрат Кудратович	
Optimizing the efficient transport of mass from alternative energy sources and the process of heat and mass exchange during the processing of spices	37
Khayrullo Djurayev Fayzievich, Mizomov Mukhammad Saydulla ugli	
The role of digitalization in regional development and the utilization of their potential for sustainable development	44
Jafarova Khilola Khalimovna	
Разработка новых структур и способов выработки комбинированного трикотажа с повышенной формоустойчивостью на базе интерлочного переплетения	48
Гуляева Г.Х., Мукимов М.М., Каримова Н.Х.	
Кислотная активация навбахорской бентонитовой глины	53
Хужакулов Азиз Файзуллаевич, Хотамов Кобил Ширинбой угли	
Mustaqil ta'limni tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish metodikasini takomillashtirish.....	58
Murodova Zarina Rashidovna, Jo'raqulova Mehrangez Orifovna	
Kislorodli birikmalar asosida olingan antidetonatsion kompozitsiyalarning ai-80 avtomobil benzinini detonatsion barqarorligiga ta'sirini tadqiq qilish	66
Saloydinov Aziz Avazovich	
Buxoro viloyatining investitsion jozibadorligini oshirish yo'llari.....	70
Akramova Obida Qosimovna	
Исследование механико-технологических параметров глубокого рыхления почвы подпахотного горизонта.....	77
Н.С.Бибуттов, Ф.Ю.Хабибов, Ш.М.Муродов	
Разработка экспериментальной установки энергосберегающего измельчителя фруктов и овощей для производства сок с мякотью.....	85
Ф.Ю. Хабибов, Х.Х. Ниязов	
Туризм: типология и классификация.....	95
Малохат Мухаммадовна Жураева, Марупова Гульноз Умарджоновна	
"Yashil energetika"ni rivojlantirishni rag'batlantirishning me'yoriy ko'rsatkichlarini ishlab chiqish.....	99
Sadullayev Nasullo Ne'matovich, G'afurov Mirzoxid Orifovich, Ne'matova Zuxra Nasullo qizi	
Umumiy ovqatlanish korxonalarida xizmat ko'rsatish sifatini oshirishda diversifikatsiyalangan milliy hunarmandchilik mahsulotlaridan foydalanishning ahamiyati.....	108
Ruziyeva Gulinoz Fatilloevna, Raximova Dilorom Sulaymonovna	
Polimerlar ishlab chiqarishda hamda ularni qayta ishlashda hosil bo'ladigan chiqindilardan samarali foydalanish jihatlari	114
Raxmatov Sherzod Shuxratovich, Sadirova Saodat Nasreddinova, Niyozova Rano Najmiddinova, Axmedov Hafiz Ibroimovich	
Kichik quvvatli, energiya samarador shamol turbinalari ko'rsatkichlarining tahlili.....	118
I.I. Xafizov, F.F. Muzaffarov, M.Sh. O'ktamov	



Анализ ингредиентов пищевых продуктов с помощью нейронной сети	127
Мухамадиева Зарина Баходировна	
Dizel moylarini reologik xossalarini tatqiq qilish	132
Xo'jaqulov Aziz Fayzullayevich, Toshov Mavzuddin Sa'dullo o'g'li	
Анализ состав и свойства нефтяных остатков и битумов	136
Юлдашев Норбек Худайназарович, Махмудов Мухтор Жамолович, Комолов Руслан Илхомбекович	
Kambag'allikdagi tarkibiy o'zgarishlarning aholi turmush forovonligi darajasiga ta'sirining ahamiyati.....	141
Xayitov Sherbek Naimovich	
Maxsus kiyimlar tikishda foydalaniladigan gazlamalar tahlili	148
Sayidova MaftunaHamroqul qizi	
Production of tomato paste	153
Ergasheva Muhabbat Komil kizi	
Problems of development of research and innovative activities in higher educational institutions.....	156
Rakhimova Dilnoza Davronovna, Alimova Ruxsora Xamzayevna	
O'zbekiston mehnat bozorida bandlikning innovatsion turlarini shakllantirish va rivojlantirish omillari	159
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna	
Dual ta'limda keys texnologiyasini qo'llash	166
Sariyev Rustam Bobomuradovich	
Mintaqada bank-moliya tizimini rivojlantirishning nazariy va metodologik asoslari	169
Jumayev Bahodir Raxmatullayevich	
Chiqindi AKM katalizatorlardan kobalt va molibdenni ajratish usuli.....	174
Tursunova F. J., G. R. Bozorov	
Hududlarning mutanosib barqaror rivojlanishini ta'minlash imkoniyatlari (ijtimoiy rivojlanish va yo'nalishlar)	180
Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich	

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. Maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.